

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY – IQTISODIIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

3 - KURS

REFERAT

**MAVZU: MARKAZIIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING IJTIMOIIY
SIYOSIIY QARASHLARI**

Bajardi: Xoliyorova K.

Tekshirdi: ass. Baxriyeva D.

Samarqand – 2016 yil.

Mavzu: Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy siyosiy qarashlari

Reja:

I. Kirish

II. Asosiy qism

2.1. Markaziy Osiy xalqlari tarixi.

2.2. Markaziy Osiyo xalqlarining muqaddasi kitobi «Ovesto»

2.3. Sosiologiyaning fan sifatida vujudga kelishida buyuk mutafakkirlarning o'rni va roli.

3.3. Xulosa

III. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Sosiologiya-insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ma'naviy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Afsuski, kommunizm mafkurachilarning vakillari kibernetika, psixologiya, politologiya kabi fanlar qatorida sosiologiya ham inkor etilib, uni sosializmga zararli «yolg'on fan» qatoriga qo'shib ko'p yillar davomida jahon xalqlarining durdonasi, ma'naviy va madaniy boyligi bo'lgan bu fanning va uning namoyonlarini tahqirladilar. Natijada jamiyatning eng katta boyligidan-ijtimoiy fikrlarni har tomonlama va chuqur o'rganishdan, ijtimoiy taraqqiyot borasida axborotlar tizimini yaratishdan va oxir oqibatda ijtimoiy hayotni aniq ma'lumotlarga, to'g'rirog'i xalq fikriga tayangan holda ilmiy asosda boshqarishdan mahrum qildilar. Mustaqillik tufayli sosiologiya faniga prezidentimiz I.Karimov tomonidan keng yo'l ochib berildi. Shaxsan I.Karimov rahbarligida O'zbekistonda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazining tashkil etilishi esa bu fanning prezidentimiz himoyasiga olinganligidan dalolatdir¹.

Endi bizning oldimizda turgan masala bu sosiologiya fani qachon vujudga kelgan degan muammodir. Eng avvalo shuni unutmash kerakki, sosiologiya – bu jamiyat to'g'risidagi fandır. Ijtimoiy munosabatlarni, jamiyatning turli sohalaridagi o'ziga xos jihatlarni, umumiy va xususiy qonuniyatlarni, jarayonlarni o'rganadigan fan bu sosiologiyadir.

Shu sababli sosiologiya-jamiyat, sosial jamiyat sifatida o'zining uzoq tarixiga egadir. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tabiat va jamiyat bag'rida namoyon bo'lishini million yillar o'z ichiga qamrab oladi. Shundan esa haqiqiy ijtimoiy jamiyat kishilarning ongli faoliyati, tafakkur bilimlarning shakllanib, ma'naviy-madaniy boylik manbalari shakllanib kishilik jamiyati sifatida rivojlana borishiga bir necha o'n ming yillar o'ziga qamrab oladi. Bu yillar davomida insoniyat o'zining jamiyatdagi o'rnini, tabiat sahovatlaridan foydalanishning ongli

¹ Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ». Тошкент, 1998.

bosqichini, bu jarayonda yuz berayotgan hayotiy-sosial muammolarning vujudga kelishini va bu muammolarning hal qilinish yo'llarini aniqlash, hal etish harakatlari, jamiyat taraqqiyotiga qiziqish kabi fikr-mulohazalari jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida vujudga keladi. Bu muammolar dastlab tabiat stixiyasi, keyinchalik jamiyat qonuniyatlariga qiziqish va hatto hozirgi davrda keng ko'lamda qizg'in muhokamalar vositasiga aylangan sosial tenglik, birlik, jamiyatda adolatli, erkin-ozodlik muammolarini ham o'rganishga harakatlar boshlanadi. Bu muammolar go'yo jamiyat taraqqiyotining dastlabki ibtidoiy bosqichiga ham taaluqli sosial muammolar deb noto'g'ri talqin qilmoqdalar.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi

Ijtimoiy jamiyatning mahsuli bo'lgan bu sosial g'oyalar, muammolar, ya'ni sosial tenglik, erkinlik, adolatli erkin jamiyat to'g'risidagi g'oyalar, eng muhim ijtimoiy muammolar sifatida insoniyat tarixiy taraqqiyotining keyingi rivojlangan

bosqichida jamiyatda tengsizlik, boshlangan davrda, mulkiy tabaqalanish keskin tus olgan davrda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy sohalarda, jamiyatda zulm, tengsizlik boshlangan davrlarda vujudga kela boshlagan, uni hal etishning turli harakat yo'llari axtarilgan, uni hal etishning yirik namoyondalari faoliyat ko'rsatishganlar. Ularning aqlli-dono fikrlari ushbu muammolarni hal etishning turli xil yo'llari bilan shug'ullanib, o'zlarining dastlabki sosial g'oyalari va ta'limotlarini yaratganlar.

Bu sosial g'oyalar va ta'limotlarda sosial muammolarni hal etishning turli xil amaliy va nazariy takliflarini tavsiya etganlar. Bu nazariy va amaliy takliflarni o'z ichiga olgan ta'limot va g'oyalarda bevosita o'sha ta'limot namoyondalari bo'lgan buyuk insonlarning (shaxslarni) yashagan joyi, ijod etgan davri tarixiy sharoiti, muhiti, insonlar karakteri-tabiiy mavqeyi, mohiyati bu ta'limotlarda o'z aksini topgan, ta'siriga ega bo'lgan etnik, jo'g'rofiy muhit, regionlar-mintaqalarning xususiyatlari ham o'z aksini topgan, bu holat esa tabiiydir.

Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy, ma'naviy, g'oyaviy, madaniy me'rosi «Ovesta» ana shunday muqaddas kitob bo'lib, xalqimizning qadimiy orzu-istaklari, yaxshilik uchun yomonlikka qarshi kurashi kabi sosial muammolarni hal etishning g'oyaviy, aytish mumkin hatto amaliy, nazariy ma'limoti hamdir, deyish maqsadga muvofiqdir. Aytish mumkinki, jahon xalqlari tarixida «Ovesta» bilan tenglashadigan qadimiy asar hanuzgacha topilgan emas.

«Ovesta» Markaziy Osiy xalqlari tarixida hatto jahon xalqlari tarixida eng qadimiy asar bo'lib, uni ijtimoiy jamiyat haqida, jamiyatning sosial muammolari haqida, yaxshilikning yomonlikka (Axrimon va Axuramazda) qarshi kurashi insoniylik, komil insoniylik g'oyalari haqida atroflicha ta'riflanib berilgan desak hato bo'lmaydi. «Ovesta»dagi asosiy g'oya «o'zinga ravo ko'rmaganni o'zgaga ravo ko'rma» degan insoniylik shiori yotadi. Bu shior o'lkamiz xalqlarining muqaddas g'oyaviy shiori bo'lib keldi va unga asrlar osha amal qilindi. «Ovesta» ushbu insoniylik g'oyasi nafaqat o'lkamiz xalqlari tarixida, balki Sharq, Janub va yaqin Sharq xalqlarining sosial g'oyalarida, ta'limotlarida takrorlanib, hatto

hayotda qo'llanilgan nazariy va amaliy faoliyatlarini aks ettiruvchi ta'limotlarida o'z aksini topdilar, diniy va dunyoviy ta'limotlariga aylanib qoldilar.

Afsus bilan shuni ta'kidlash lozimki, «Ovesta»dagi ilg'or g'oyalar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan o'lkamiz xalqlari tarixida arablar bosqiniga qadar bo'lgan davrda qanday bo'lganligi haqidagi yozma manba'lar deyarli yo'q qilingan. Dastlab Grek-Makedon bosqinchisi Iskandar Makedonskiy va keyin arablar tomonidan yo'q qilindi.

Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xitoy, Hindiston, Rim va Gresiya, Misrda «Ovesta» g'oyalari keng tarqalganligi haqida manba'larda keltiriladi. Bu manba'larda aynan «Ovesta»dan olingan deyilmasada, uning asosiy ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bir qator tarixiy manbalarda, g'oyaviy nazariy ta'limotlarda o'z aksini topgandir.

Jumladan, eramizdan oldingi 1-minginchi yillarda Xitoyda jamoatchilik (kollektiv) asosda yaratilgan «O'n uch kitob» nomli klassik asarning asosiy g'oyasi «Ovesta»da keltirilgan «O'zinga ravo ko'rmaganni o'zgaga ravo ko'rma» g'oyaviy shiori bo'lib, qadimgi Xitoy konfuzionchilik falsafiy maktabining mahsulidir. Bu maqsadga qadimgi Xitoy yirik faylasufi, konfuzionizm diniy oqimining asoschisi e.o. VI asrda yashab o'tgan Kun-Szy edi. Bu ta'limotning asosini inson muammosi tashkil etib, tabiat insonni sahovatli, fazilatli qilib yaratgan, yovuzlikni esa zolimlikni jamiyatdan olgan. Demak, uni –yovuzlik, zolimlikni, o'zinga ravo bo'lmaganni ravo ko'rma, uni yo'q qilish mumkin, deydi. Kun-Szy bu «o'n uch kitob»ida o'sha davrda, ya'ni o'zlari yashagan davrdagi mavjud jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzumini o'zgartirish, sosial tenglikni tiklab jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlikni yo'q qilish mumkin, - deydi. Kun-Szy bu haqda «Suhbat va mulohaza» nomli asarida batafsilroq va aniqroq to'xtalib o'tadi. U shunday deb yozadi: «O'zinga nimani hohlamasang o'zaga ham uni istama, keksalardan o'rgan, bilimli kishilarni, olimlarni hurmat qil, boshqarishda talantli kishilardan foydalan, adolatli insonparvarlik bilan boshqar (jamiyatni – A.Sh.) boshqarishda tinchlik va adolatlilik ruhiga rioya qil, tabitni bil va aqlli foydalan, bilgin-inson o'z taqdirini, o'z hayotini yaratuvchidir...» deb yozadi. Ana shu g'oyalar butun Xitoy xalqi

o'rtasida o'sha davrda keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanadi va asosiy hukumron diniy oqimga, ta'limotga aylanib boradi. Konfusiyanizm hukumron diniy oqimga aylanib davlat va mulkning daxlsizligini ulug'laydi va uni adolatlilikning buyuk belgisi-vositasi, deb hisoblaydi. Shu sababli davlat Xitoyda konfuzionizmni qo'llab-quvvatlaydi.

Ana shunday sosil g'oyaviy ta'limotlar qadimiy Hindistonda ham vujudga kelib o'z aksini ijtimoiy hayotda topadi. Jumladan, eramizdan oldin 2-minginchi yildan VI-asr (e.o.) o'rtalarigacha davrni o'zida ifoda etgan "Veda" (tekst matnlari) va "Upanishodlar" (diniy-falsafiy traktlar, ya'ni dasturlar) vujudga kelib, ularda (bu asarlarda) insonni va inson ruhini yovuzlik, yomonlik va zulmdan saqlab, adolatsizlikning har qanday zulm va kulfatli ko'rinishlaridan qutilib, sosial tenglik, yaxshilikka erishish yo'llarini ko'rsatib sosial g'oyalarni «Ovesta»ga xos talablarni ilgari suradi va undagi asosiy insoniylik g'oyasini takrorlaydi.

Bu g'oyalardan bir qator ko'zga ko'ringan Qadimiy Hind olimlari o'z vaqtida ustalik bilan foydalanishga muvaffaq bo'ladilar. Jumladan, qadimgi Hind olimi-faylasuf S.Gautama bundan ustalik bilan foydalanib Buddo, budizm diniga asos soladi. Buddo – bu yorug'likka intilish ma'nosini anglatib qorong'ulikdan chiqib, yorug'likka intilishni bildiradi.

Bu din e.o. VI-V asrlarda qadimiy Hindistonda shakllanib, asosiy dinga aylana boradi va kastachilikka (braxmanizm) asta-sekin barham berilib u din tamoman rad etiladi. Natijada yangi Buddizm dini ham insonlar sosial jamiyatda va tabiatda «tengqo'rlar» deb e'lon qiladi. Buning uchun sosial jamiyatdagi hamma aloqa va munosabatlarda yuz beradigan tengsizlik va zulmni, hatto zulm, tengsizlik vositasi – davlat tuzimini ham bekor etish kerak, chunki u yovuzlik, yomonlik manbaidir, - deb e'lon qiladi.

Sosial muammolar haqida ijtimoiy sosial tenglik g'oyalari qadimgi Rim va Gresiyada e.o. VI-V va eramizning I-II asrlarida keng tarqaladi. Iqtisodiy, sosial-siyosiy, g'oyaviy-ahloqiy jarayonlarda insoniylikning hamma jabhalarida siyosiy adolatlilikni, jamiyatda insoniy erkinlikni tiklash, o'rnatish g'oyaviy ta'limotlari bilan chiqqan antik dunyo olimlari Demokrat, Protegor, Sokrat, Platon (Aflotun),

Arestotel (Arastu) va boshqa sosial ta'limot namoyondalari shular jumlasidandir. Hatto xristianlik paydo bo'lishining dastlabki davrlarida haqiqatda sosial tenglik, erkinlik g'oyalarini asosiy shior qilib «yo'qsillar», «mo'htojlar» dini deb bekorga aytilmagan edi. Ular qulchilikka qarshi kurash olib bordilar.

Qadimgi Grek-Makedon va Rim madaniyati taraqqiyotida mustaqil, egilmas, bukilmas, aqlli jonzot, mustaqil, bilimdon, rivojlangan mavjudot bo'lgan inson, inson shaxsi haqidagi g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi va ular doimo jamiyatda teng, erkin va ozod, adolatli shaxs bo'lishligi g'oyasini ilgari suradi.

Jamiyatning buyuk yaratuvchisi inson ekanligini, shu sababli ular mustaqilligi, ozodligi, komil insoniylik g'oyalari ta'limotlari qadimgi Misr, yaqin Sharq – Palastinda keng ravishda o'z rivojiga ega bo'ladi. Inson qadr-qimmat, taqdiri masalasiga jiddiy e'tibor berilib, zulmni jamiyatdan tamoman chiqarib yo'q qilib tashlash g'oyasini ilgari suradi.

Ana shunday insoniylik jamiyatda inson o'rni, mavqeyi, yakka xudoga ishonish, e'tiqod qilish g'oyalari eramizning VII asrida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan islom dinining asosiy ta'limotiga aylanib, Qur'on va hadislarda u o'z aksini topadi. Bu voqyealar G'arbiy Arabistonda urug'-qabiloviy munosabatlarning yemirilib mulkiy tabaqalanish munosabatlarning o'rnatila borishi davri bilan xarakterlanadi. Islom dini shu tariqa vujudga kelib, uning asoschisi Muhammad Payg'ambar g'oyasi va diniy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Uning g'oyalarida insonlar hayotida, turmush tarzida keskin o'zgarish yasash talabi yo'q, ammo islomga e'tiqod qiluvchi mo'min-musulmonlar bir-biri bilan birodarlikda yashashi (kim bo'lishi, qanday millat, xalq va etnik holatidan qat'iy nazar), e'tiqodli, tartibli bo'lishi, o'zaro yordam, hamkor bo'lishi, yer sharidagi hamma insonlar etnik, madaniy holatidan qat'iy nazar islom atrofida Ollohga sig'inib, uni yakka bilib birlashishga chaqiradi, boshqa dinlar bilan hamkorlikda bo'lishga, diniy tolerantlikka da'vat etadi.

Demak, qadimgi dunyo qanday bo'lishidan qat'iy nazar tenglik, adolatsizlik, erkinlik, yaxshilik va yomonlik, zulm haqida ham materialistik, ham diniy

tushunchalar kabi sosial g'oyalar ma'naviy me'rosni yaratib ketganlar. Baribir insoniyat taraqqiyotida tengsizlik davom etib kelmoqda¹.

Sosiologiyani fan sifatida tasavvur etishda uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Sosiologiya fan sifatida qachon vujudga keldi? Eng avvalo shuni unutmaslik kerakki, sosiologiya-bu jamiyat, ijtimoiy-jamiyat to'g'risidagi fan. Ijtimoiy munosabatlarni, jamiyatning turli sohalaridagi o'ziga xos jihatlarni, umumiy va xususiy qonuniyatlarni, jarayonlarni o'rganadi. Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari Aflotun (er.avv.427-347 y.)ning «Qonunlar», «Davlat to'g'risida», Arastu (er.avv.384-322 y.) «Siyosat to'g'risida», «Metafizika», «Etika», Protagorning (er.avv.490-420 y.) «Haqiqat» kabi asarlarida yoritilgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan, «Minerologiya» asarida shaxs burchi, oliyjanoblighi, shuningdek, jamiyat hayoti, mohiyati, burchi, ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Beruniy tom ma'noda o'z davri etnososiologi ham edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida turli xalqlar, forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian – molikiylar va xristian-nasturiylar, majusiylar, sobitlar, butparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida, «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Bu go'zal mamlakat xalqlari, ularning urf-odatlarini, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlari, nikoh masalalarini o'rgangan. Beruniy hindlarning bayramlari, yaxshi kunlar va yomon kunlar to'g'risidagi aqidalarini ham yozib qoldirgan. Beruniy ilmiy ijodida jamiyat hayotini o'rganishda ilmiy kuzatish, taqqoslash, tasiflash kabi sosiologiyaning empirik asoslaridan keng foydalangan.

¹ К.Юнусов. «Социология» (ўқув қўлланма), Андижон, 1998

Amir Temurning siyosiy-sosiologik qarashlari o'z davri uchun qanchalik muhim bo'lsa, bu qarashlarda ilgari surilgan g'oyalar hozir ham o'z ahamiyatini saqlab turibdi. Amir Temurning qarashlaridan ijodiy foydalangan holda ichki va tashqi siyosat olib borish muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, Amir Temurning o'zi esa bevosita zamonasining va o'z sinfining vakili sifatida yashadi va kurashdi. Shu tariqa Amir Temur jahon tarixida buyuk shaxslar qatoridan munosib o'rin egallaydi. Amir Temurning faoliyati va siyosiy qarashlari natijasida va u bilan uzviy bog'liqlikdagi Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi lar maydonga chiqdilar, insoniyat fani va madaniyati tarixini bularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. «Amir Temurning tarixiy xizmati, - deb yozadi I.Karimov, -yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jo'g'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi» (I.Karimov. «Bunyodkorlik yo'lidan». T.1996, t.4, 342 bet).

A.Navoiy o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Sa'ddi Iskandariy» dostonida chuqur g'oyalar orqali beradi. Bu dostonida ilgari surilgan asosiy g'oya shundan iboratki, Iskandar davlatida barcha xalqlar, millatlar va elatlarning urf-odatlariga, dinlariga, tillariga qaramasdan teng ozoddir. Barcha zolim shohlar zo'rlik bilan tugatilgan butun dunyoda yagona sosial-siyosat, davlat o'rnatilgan. Bu bilan A.Navoiy o'zining sosial-siyosiy qarashlarida odil hukmdorga, el-yurtda adolatli tuzum o'rnatilishiga, qat'iy ishonch va umid qiladi. Shuning uchun ham Navoiy o'zining sosial-siyosiy qarashlarini, o'z asarlarida tasvirlagan. O'tmishning afsonaviy va tarixiy odil hukmdorlari obrazi orqali, hukmdorlarni adolatli, muruvvatli hokimiyat egasi bo'lishiga chaqiradi. A.Navoiy siyosiy adolat, sosial tenglik g'oyasini ahloq va xalqchilik obodonchilik uchun jon kuydirish fazilatlarini bilan uyg'unlashtirgan holda tarannum etadi. A.Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida tinchlik, do'stlik g'oyalari asosiy o'rinni oladi. U barcha davlatlarni, xalqlarni tinch-totuv yashashga chaqiradi. Uning fikricha, barcha xalqlar, katta-kichikligiga qaramasdan, o'zaro teng bo'lishi va bir-birlari bilan savdo-sotiqni, ijtimoiy aloqani rivojlantirgan holda yashash kerak.

A.Navoiy o'zining «Tarixi mulki ajam» asarida davlatga rahbarlik qilgan 65 ta shohga va ularning boshqarish sohasida olib borgan sosial siyosatiga baho beradi. Ular orasida mamlakat va saltanatni boshqarish sohasida adolatli ish tutgan shohlar haqida, ularning mamlakatni boshqarish va davlat ishlarini yo'lga qo'yish sohasidagi ishlari haqida muhim g'oyalarni ilgari suradi.

Navoiy o'z davridagi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini yaxshi bilgan. Bunga uning «Mahbub-ul-qulub» asari yorqin misol bo'la oladi. Bu asarida Navoiy 39 xil ijtimoiy guruhning ahvoli va odatlari haqida so'zlagan, yozib qoldirgan.

«Nazmul-javohir» asaridagi ruboyilaridan birida esa Navoiy huquqshunoslarning mayda va nihoyatda murakkab, mashaqqatli mehnatiga yuksak baho bergan. Huquqni, ya'ni huquqshunoslikni ilmlarning eng sharaflisi, deb baholagan va odamlarni huquqshunoslik fanlarini chuqur o'rganishga da'vat etgan.

Navoiy so'zlaridan shu narsa anglashiladiki, u o'z asarlarini, xususan dostonlarini yozayotgan xalqni, bitta xalqni emas, butun insoniyatni ko'zda tutgan. Shuning uchun bu o'rinda u mening asarim xalqqa, har bir inson qalbiga sevimli bo'lsin, hatto yetti iqlim uni yaxshi ko'rib, unga xaridor bo'lib, qiziqib yursin, deydi.

«Farhod va Shirin» dostonini yozishga kirishganida ham Navoiy o'z oldiga hammaga shohga ham, qulga ham maqbul bo'ladigan asar yozishni maqsad qilib qo'ygani bejiz emas edi:

Shoh olsa qilsin toji torak,

Qul olsa ham anga bo'lsin muborak.

Navoiy ijodining, xususan uning lirik va epik she'riyatining barcha xalqlar uchun qimmatli tomonlaridan biri, ularda kishilar o'rtasidagi mehru-oqibat, o'zaro muhabbat, hurmat, vafodorlik tarannum etiladi. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarida bu mavzu jahon adabiyoti yuksakligida yoritilgan. Shoir «Hayrat-ul-abror» dostonida bu masalaga to'xtalar ekan:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,

Ikki jahon demaki jon bo'lmasun. —

deb yozadi. Buning ma'nosi shuki, butun jamiyat, butun borliq, xususan odamlar o'rtasidagi barcha munosabatlar o'zaro muhabbatga, hurmatga asoslanishi, shu asosda rivojlanishi, yashashi kerak. Bir-biriga emas, insoniy xususiyatlarga, shaxsning muqaddas, samimiy, pok istak intilishlariga qarab belgilanishi lozim. Chinlik yigit Farhodning arman qizi Shiringa muhabbat qo'yishi, otashin sevgisining Shirin tomonidan e'zozlanishi, turli xalq, mamlakatlarning vakillari-arabistonlik Layli, Majnun, eronlik Bahrom, xitoylik Dilorom, yunonlik Iskandar kabilarning yorqin obrazlari – bular hammasi Navoiy she'riyatining yaxshilik va oliyjanoblikka, ma'naviy sof va yuksak bo'lishga qaratilgan dalolatdir.

Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta'limiy qarashlari keng bayon qilingan bo'lib, uning asosiy g'oyasini adolatli tuzumini, insonni ulug'lash, mehnatkash, ijodkor, bilimdon xalq g'amini yeyish, unga g'amxo'r bo'lish g'oyasi yotadi. Bu dostonidagi:

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

misralari Alisher Navoiyning qanchalik xalqparvar siyosiy tafakkur egasi ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Shunday qilib A.Navoiy asarlari markazida turgan belgilovchi va yo'naltiruvchi bosh masala – inson, xalq, Vatan ularning gullab yashnashi, istiqboli haqidagi muammolardir.

Shunday qilib, ko'ramizki Markaziy Osiyoda yashagan ko'plab mutafakkirlar va davlat arboblari «Sosiologiya» fanining shakllanishi va rivojlanishiga munosib darajada hissa qo'shganlar. «Sosiologiya» fanining ko'pgina masalalari birinchi marta ana shu davrda yashagan mutafakkirlar va davlat arboblarning siyosiy qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham «Boburnoma» asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqyeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijondan Hindistonga qadar bo'lgan o'lkan hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan.

Yuqorida nomlari zikr qilingan buyuk mutafakkirlar yashagan davrda sosiologiya haqiqatda mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi.

Ularning ijtimoiy hayot jarayonlari to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari natijalari esa ijtimoiy-falsafiy qarashlar tarzida namoyon bo'lgan.

Sosiologiyaning fan sifatida vujudga kelishi, uning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit va ilmiy-nazariy manbalar nimadan iborat?

Sosiologiya nisbatan mustaqil fan sifatida qachon vujudga keldi? Tarix shunga guvohlik beradiki, fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857) tomonidan 1839 yilda «Pozitiv falsafa qursi» asarining uchinchi tomi chop etilgandan boshlab «sosiologiya» faniga asos solindi. U o'z asarida birinchi bor jamiyat hayotini o'rganish vazifasini bajaradigan «sosiologiya» tushunchasini qo'llagan. O.Kont o'z ta'limotini pozitiv, ya'ni ilmiy asoslangan falsafa deb baholadi. Dastlab pozitiv bilim matematika, fizika, astronomiya, ximiya, keyinchalik biologiya sohasida qo'llanildi. Keyinchalik sosiologiyada qo'llanilishi esa uning eng yuqori darajaga erishganligini bildiradi. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usullari yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi. Aslida jamiyat hayotini o'rganishga qaratiladigan bunday usul Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan qariyb ming yillar avval qo'llanilgan ijtimoiy hayot jarayonlarini o'rganish usullaridan unchalik keskin farq qilmaydi. Asosiy farq faqat shundan iboratki, yangi davr G'arbiy Ovrupo fani ijtimoiy tadqiqot shakli o'rta asr Sharq ijtimoiy hayotidan tubdan farq qiluvchi, yangi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga, o'ziga xos tomonlariga ega bo'lgan jamiyat tuzimini, ya'ni kapitalizmni o'rganishga qaratilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yuksalishga erishayotgan G'arbiy Ovrupa hayoti ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga, o'rta asr turg'unligidan chiqa olmagan sharq mamlakatlariga nisbatan ilmiy bilimlar rivojlanishiga yangi muhit va qulay sharoit yaratib berdi. Buning oqibatida jamiyat hayotini tobora sistemali, mukammal o'rganishga qaratilgan sosiologiya fan sifatida shakllandi va yanada rivojlana boshladi.

Sosiologiya fan sifatida tarkib topishida yana bir muhim omil-mehnat taqsimoti va kooperasiya qonunining ochilishi sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida

jamiyat tarixida muhim rol o'ynaydi. Chunki, buning oqibatida ijtimoiy va kasbiy guruhlar sosiologiya tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshlandi¹.

O.Kont sosiologiyani ikki qismga ajratadi: sosial statika va sosial dinamika. Sosial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o'rganilishini ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar oila, davlat, din kabilar tadqiq etildi. Sosial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozirgi zamon sosiologiyasi tarkibida ham o'z mazmunini, ilmiy qimmatini saqlab qolgan.

Sosiologiyaning fan sifatida tarkib topishdagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar va uning nazariy manbai nimadan iborat edi? XIX asrning 40-yillari G'arbiy Ovrupo mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy ahvol notinch edi. Fransiya, Angliya mamlakatlari ijtimoiy munosabatlarida keskin ziddiyatlar vujudga kelgan edi. Sosial inqiloblar G'arbiy Ovruponi larzaga sola boshladi. Shunday sharoitda O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber kabi sosiologiya fani asoschilari jamiyat taraqqiyotini islohotlar asosida olib borish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surdilar. Xuddi shu davrning mutafakkirlari K.Marks va F.Engelslar esa o'zlarining jamiyat hayotini inqilobiy yo'l bilan rivojlanib borishi ta'limotini ilgari surdilar. Shundan boshlab to SSSR parchalanib ketguniga qadar ikki qarama-qarshi g'oyaviy yo'nalishda sosial g'oya rivojlanib keldi. Bular, bizda «Burjua sosiologiyasi» nomi bilan atalib kelingan. G'arbiy Ovrupo va AQShda rivojlangan sosiologiya va «marksistik sosiologiya». Har ikki yo'nalish uchun ham XIX asrning 30-50 yillarida yaratilgan: nemis olimlari Shvanss va Shreydenlar tomonidan (1838-1839) yillar hujayraning kashf qilinishi, ingliz olimi Ch.Darvin tomonidan ishlab chiqilgan turlarning evolyusion nazariyasi ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Kapitalizmning jadal rivojlanishi jamiyat hayotida bir qator dolzarb muammolar yuzaga keldi. Yirik sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi oqibatida shahar aholisi soni jadal sur'atda orta boshladi. Ijtimoiy-siyosiy ongning

¹ К.Юнусов. «Социология» (ўқув қўлланма), Андижон, 1998

rivojlanishi bilan keng omma, ayniqsa proletariat sinf sifatida shakllanib, ularning uyushqoqligi orta bordi. Shu bilan birga ularning qashshoqlashuvining ortishi, bularning barchasi sosial ziddiyatlarning kuchayuviga sabab bo'ldi. Shunday qilib, bir tomondan jamiyatning ijtimoiy «xastaligi» ortdi, boshqa tomondan esa, bu «xastalikni davolovchi o'zlarining «ijtimoiy muolajalarini» taklif qilib, sosiologik tadqiqotlar orqali jamiyat hayotini tartibga keltirishga uringan kishilar – sosiologlar paydo bo'ldi.

Angliya va Fransiyada kapitalizmning jadal rivojlanishi bilan bog'lik holda, shu mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy rivojlanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borildi. Jon Siklarning 21 jildidan iborat «Shotlandiyaning statistik tavsifi», Fridrix Engelsning «Angliyada ishchilar sinfnining ahvoli», Charlz Butning «London kishilarining hayoti va mehnati», Andre Gerrining «Fransiya ahloqiy statistikasi ocherklari», Frederik Le Plening 6 jildlik «Yevropa ishchilar» asarlari shular jumlasidandir.

XIX asr yirik statistikalaridan Adolf Ketlening 1835 yilda chop etgan «Inson va qobiliyat rivojlanishi to'g'risida yoki ijtimoiy hayot tajribasi» asari amaliy sosiologik tadqiqot metodologiyasi va uslubiyotini ishlab chiqishda, umuman sosiologiyaning fan sifatida vujudga kelishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo kabi ulug' allomalar o'z davri ijtimoiy hayotining turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarining ijtimoiy qarashlarini o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Siyosat al-madaniya» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukumdorlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarining kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringanlar. Davlat va jamiyat masalasida davlatni ijtimoiy tizimni boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan.

«Fozil shaharning birinchi boshlig'i,-deb ta'kidlaydi Forobiy, shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur¹».

Bular jumlasiga, hokimning to'rt muchali sog'-sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarishi lozim; nozik farosatli, xotirasi yaxshi, zehnli ravshan tushuntira oladigan, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, taom yeyishida, ichkilikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, o'zini tiya oladigan bo'lishi va haqiqatni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, oliyhimmat bo'lishi, oliy ishlarga intilishi zarur; mol-dunyo ketidan quvmaydigan, tabiatdan adolatparvar, istibdod va jabr-zulmni yomon ko'ruvchi, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi kabi hislatlar kiradi. «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarli ozod, hamma babbarobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlangan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar» - kabi fikrlari Forobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.

¹ Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». Тошкент, 1993

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent, 1998.
2. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat». Toshkent, 1994.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...». Toshkent, 1997
4. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri». Toshkent, 1993
5. Ahmad Yassaviy. «Devoni hikmat».
6. Abu Rayhon Beruniy. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Ma'sudiya».
7. Abu Ali ibn Sino. «Tadbiri manzil».
8. Nizom al-Mulk. «Sayohatnoma».
9. «Sosiologiya» darslik. M.1990
- 10.K.Yunusov. «Sosiologiya» (o'quv qo'llanma), Andijon, 1998
- 11.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, 1995. 3-320 betlar.
- 12.M.Bekmuradov. «Sosiologiya asoslari». T.»Fan», 1994.